

FIQHIY MASALALARNI TUSHUNISHDA IXTILOF AL-HADIS ILMINING AHAMIYATI

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
2-bosqich magistranti Ismoilov Akbar*

Annotatsiya

Fiqh ilmi dinning amaliy qismini o'rganuvchi fandır. Musulmon kishi robbisiga qanday ibodat qilishini, barcha ibodatlarining ruknlari-yu shartlarini, qanday qilsa to'g'ri va qay holda noto'g'ri bo'lishini o'rganadi. Ma'lumki Qur'on va sunnat fiqhning asosiy manbalaridandir. Hadislar Qur'onning bayoni ekan ularni to'g'ri idrok etish uchun bir qancha ilmlarga murojaat qilinadi. Shu kabi ilmlardan biri "Ixtilof al-hadis" ilmi bo'lib, unda hadislarining zohiriy ma'nosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar bartaraf etiladi va uning yordamida Islom shariati hukmlarida qarama-qarshilik yo'q ekanligi bilinadi.

Kalit so'zlar: Fiqh, hadis, ixtilof, muxtalif, istimbot, hukm, jam', nasx, tahrij.

Avval "ixtilof al-hadis" iborasining ma'nosini bilib olaylik. Ushbu ilmdagi mo'tamad kitoblarda hadis ilmlariga tegishli bu yo'nalish "muxtalif al-hadis" deb yuritiladi. Ixtilof yoki muxtalif so'zining lug'aviy ma'nosi borasida Ibn Faris¹ shunday degan: "xo, lom va fa harflari arab tilidagi uch ma'nodan birini anglatadigan so'zning asliy harflaridir", ular:

- 1- Bir narsa boshqa bir narsadan so'ng kelib uni o'rniga turish ya'ni egallash
- 2- O'zidan oldingining xilofi ya'ni unga teskari bo'lish
- 3- O'zgarmoq

Birinchisi o'zidan oldingining o'rnini egallash. Alloh taolo shunday deydi: "Bas ulardan so'ng, ortlaridan kitobni merosga olgan(خَلَفَ) bir o'rinbosarlar(خَلَفَ) keladiki,"². Bundan tashqari "xilaf" so'zidan "xilafa" ya'ni xalifalik so'zi olingan bo'lib, keyingisi avvalgisidan so'ng kelib uning maqomini egallash ma'nosini anglatadi. Alloh taolo Qur'onda shunday marhamat qiladi: "Musu akasi Horunga: Qavmimda mening o'rnimni ol, dedi". Xalifa esa o'zidan oldingini o'rnini egallaydi. Va yana xilfa deb kecha va kunduzning "ixtilofi" o'rin almashishiga ham aytiladi.

Ikkinchi ma'no esa "تَأَخَّرَ" (taaxxor) ya'ni qolib ketish, kechikish degani. Uchinchi ma'no esa, "التَّغْيِيرَ" (attag'oyyur) ya'ni o'zgarish. Arablar agar biron kishining nafasi o'zgarsa "xolafa" so'zini ishlatadilar. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Ro'zadorning og'zining(og'zidan keladigan hidning) o'zgarishi(ألخولف)

¹ Ibn Faris. Mu'jam maqayis al-lug'a. 210/2.

² Qur'oni Karim. Maryam surasi. 59-oyat.

Alloh taoloning huzurida miskning hididan yaxshidir”³. Ammo “ixtilof” so‘zi o‘tgan zamon fe‘lidir, “muxtalif” esa o‘sha felning ismi foili ya‘ni fe‘l bajaruvchisi ma‘nosidagi so‘zdir.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, muxtaliful hadis yoki ixtilof al-hadis iborasining lug‘aviy ma‘nosi: ma‘noda bir-biriga xilof qilgan, zid bo‘lgan hadislar deb tushuniladi.

Muxtalif so‘zining istilohiy ma‘nosi esa, bu borada olimlarning bir qancha qarashlari bor, quyida ulardan asosiylarini keltirib o‘tamiz. Saxoviyning ta‘riflari quyidagicha: “Zohiridan ma‘noda bir-biriga zid bo‘lgan ikki hadis bir mavzuda kelishi”. Suyutiy va Ibn Jamaalar bu iboraga shunday ta‘rif beradilar: “Muxtalif al-hadis deb – zohiriy ma‘nosida bir-biriga zid ikki hadis bo‘lib, ularning ma‘nosi jamlanadi yoki ikkisidan biri ustun kelishiga aytiladi”. Zamondosh olimlardan Doktor Mahmud Tohhan ushbu iboraga shunday ta‘rif beradilar: “Ularni o‘zaro jamlash mumkin bo‘lgan o‘z mislidagi boshqa hadisga zid bo‘lgan maqbul(qabul qilingan) hadis”.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ta‘riflaridan shuni ko‘rdikki ularning barchasi mazmunda bir-biriga xilof emas. Balki har-birining ma‘nosi hadislardagi tashqi, bir qarashdagi ixtilof, ziddiyatga dalolat qiladi, ammo hadislarning haqiqatidagi qarama-qarshilikka emas. Yuqorida keltirilgan va yana boshqa ta‘riflardan kelib chiqib, nabaviy sunnatlar va Qur‘on o‘rtasida yoki hadislarning o‘zida ham asliy ixtilof yo‘q deb xulosa qilish mumkin. Imom Ahmad ibn Hanbal aytganlaridek: “Hadisning agar turuqlari (sanad yo‘llari) jamlanmasa uni tushunib bo‘lmaydi, ba‘zi hadislar ba‘zilarini tushuntirib keladi”⁴.

Ixtilof al-hadis ilmi umumiy hadislarga tegishli ilmlar turkumiga kiradi. Ibn Solah kitoblarida “Ixtilof al-hadis” ilmini ushbu turkumdagi o‘ttiz oltinchi ilm deganlar. Yuqorida ham aytilganidek ushbu ibora izofiy bog‘lanish ila ikki so‘zdan iborat, bular ixtilof yoki muxtalif va al-hadis. Birinchi qismning ma‘nolari batafsil ravishda zikr qilindi. Ikkinchi qism bo‘lgan “al-hadis” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “yangi” degani bo‘lib gapga aloqadordir va u qadim, eski so‘zlarining ziddidir.

Ahli hadislarning istilohida esa “al-hadis” bu – Rosulullohga ﷺ nisbat beriluvchi gap, ish harakati, iqrorlari va xalqiy yoki xulqiy sifatlaridir. Bu ikki kalimani qo‘shib ibora o‘laroq fanga nisbat berilgandagi ta‘rifi esa yuqorida aytili.

Ushbu ilmning samarasi ko‘p va fazli ulug‘ bo‘lib, buni eng yaxshi biladiganlar va qadrlaydiganlar faqihlar ya‘ni islom huquqshunosligi mutaxassislaridir. Ixtilof al-hadis ilmi umumiy hadis ilmlari turkumidagi eng muhim ilmlardan biri bo‘lib, nabaviy hadislardan far‘iy hukmlar istimbot qilishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

³ Sahihul Buxoriy. Ro‘za kitobi. Ro‘zaning fazilati bobi. 35/2 – 1894-hadis.

⁴ Muhammad ibn Abdurrohman Saxoviy. “At-tavdih al-abhar litazkiroti ibn al-mulqin fi ilm al-asar”. 69-b.

Yanada muhimi esa ushbu ilm orqali kishi mujtahid faqih ulamolarimizning ijtihod yo'llarini, ularning ba'zi ilmiy masalalardagi juziy ixtiloflari sabablarini va ularni, tarafkashlik yoki bemazhablikka yuzlanmagan holda, to'g'ri tushunish va masalalarga yechim topish yo'llarini o'rganadi.

Rosulullohdan ﷺ so'ng, sahobalar zamonida hadislarni zohiriy ma'nosidan bir-biriga zid tushunish muammosi yuzaga keldi. Ammo u zotlarning nabaviy madrasa o'quvchilari bo'lganliklari sabab yuksak fahmlari ila bu kabi hadislar hukmlarini jamlay oldilar yoki ijtihod qilib birini ustun hisobladilar va bu ishlariga kitoblarda bir-qancha misollar mavjud.

Sahobalardan so'ng ularga ergashganlar, "tobein"⁵ lar va "taba tobein"lar davri keldi va hadislarni turli tushunish muammosi yanada avj oldi. Rivoyatga ko'ra Imom Avzoiy Makka shahrida Imom Abu Hanifa bilan ko'rishdilar. Shunda Avzoiy: "Sizlarga nima bo'ldiki rukudan oldin va undan turgach qo'lingizni ko'tarib "rof"⁶ qilmaysizlar", dedilar. Abu Hanifa javoban: "Sababi Rosulullohdan ﷺ bu borada sahih hadis yo'qdir", dedilar. Avzoiy aytdilarki: "Qanday qilib sahih xabar yo'q, menga Zuhriy Salimdan u otasidan u esa: "Rosululloh ﷺ agar namoz boshlasalar qo'llarini ko'tarar edilar va rukudan oldin va undan turgach ko'tarar edilar" deb rivoyat qilgan" dedilar. Shunda Abu Hanifa aytdilarki: "Menga Hammud u Ibrohimdan u Alqama va Asvaddan ular Abdulloh ibn Masu'ddan rivoyat qilib aytgan: "Nabiy ﷺ nomozga kirishishdan boshqa o'rinda qo'llarini ko'tarmas edilar, so'ngra bundan qaytmadilar", dedi.

Avzoiy e'tiroz qilib: "Men senga Zuhriydan u esa Salimdan u otasidan rivoyat qilgan deb aytyabman, sen esa Hammud u esa Ibrohimdan deysanmi?", dedilar. Imom Abu Hanifa shunday javob berdilar: "Hammud Zuhriydan faqihroq bo'lgan, Ibrohim esa Salimdan faqihroq edi. Alqama esa fiqhda Ibn Umardan aytadi, Asvad va Abdullohlarining esa fazli ulug'", dedilar. Shunda Avzoiy jim bo'ldi va roviyning fihi ila tarjih qildi. Ushbu rivoyat ixtilaf al-hadis ilmining tobein va ulardan keyingilar davridagi eng yorqin misollaridandir.

Mazkur ilmga oid asarlarda kelishicha, jumhur olimlarning nazdida hadislardagi zohiriy taaruzni daf qilish yo'li uchtaadir. Ular: ikki hadis o'rtasini jamlash, nasx qilish va tarjih qilish ya'ni bir hadisni ustun qo'yishlardir. Ushbu yechimlarning barchasini xos qoydalari, turlari va ularning tafsilotlari mavjud. Biz esa muxtasar qilib ta'rif berish bilan kifoyalanamiz.

Ikki hadis orasini jamlash, ularning ma'nolari o'rtasida umum va xusus, mutloqlik va muqayyadlik, ma'nosining mujmal yoki bayon qilingan bo'lish ehtimoli

⁵ Muhammadning ﷺ sahobalariga ergashgan va ularning ta'limotlarini qabul qilib olgan musulmonlar avlodidir. Tobein kamida bitta sahoba bilan uchrashgan bo'lishi talab qilinadi.

⁶Roful yadayn – Namozda tahrimada ikki qo'lno quloq yumshog'I barobarida ko'tarish.

mavjud bo'lgani uchundir. Va yana ulamolar nazdidagi qoidaga ko'ra biror hadisga amal qilish uni e'tiborsiz qoldirishdan ustunroqdir deyilgan.

Nasx qilishdan murod, agar hadislarni jamlashning imkoni bo'lmasa tarixga qarashdir. Shunda qaysi hadis avval, qaysinisi keyin vorid bo'lgani bilinadi. So'ng keyinroq vorid bo'lgan hadis oldingisi uchun uning hukmini o'chiruvchi ya'ni nosix bo'ladi. Imom Shofeiyy aytadilar: "Hadislarni ixtilofdan boshqa narsaga ehtimol qilishning imkoni bo'lmasa, huddaki Baytul maqdis va Baytul haromning qibla ekanliklaridagi ixtilof kabi, ulardan birining qiblalik hukmi nasx qiluvchi ikkinchisi esa nasx qilingan bo'ladi" dedilar.

Hadislardan birini ustun hisoblash ya'ni tarjih amaliyotidan murod, agar jamlashning iloji bo'lmasa va biror hadis nasx bo'lganiga dalil qoyim bo'lmasagina, bir hadisni tarjih qilish tushuniladi. Albatta tarjih amaliyotida ham xos va rioya etilishi lozim bo'lgan qoidalari mavjud.

Demak yuqorida keltirilgan uch amaliyot zohirida ixtilof bor bo'lgan hadislardan ixtilofni daf qilish uslublaridir. Agar yuqoridagi ixtilofni daf qilish yo'llaridan birotasini ham qo'llash imkoni topilmasa ya'ni hadislarni jamlash, birini nasx qilish yoki birini ustun qo'yishning imkoni bo'lmasa qanday yo'l tutiladi? Bu holatda "tavaqquf" ya'ni hadislardan biri tarjih qilinmagunga qadar, ulardan biriga amal qilishdan to'xtaladi. Imom Shotibiy aytadilar: "Agar tarjih qilinmasa biror qovlning hukmini olishdan to'xtash (tavaqquf) vojib bo'ladi".

Endi esa faqih olimlar, ixtilof al-hadis ilmi qoidalari yordamida, zohiriy ma'noda yoki hukmda qarama-qarshi bo'lib ko'ringan hadislardan ixtilof o'rinlarini danday daf qilganlariga misol ko'raylik.

Mazkur hadislarning ma'nolari jamlangan va ulardagi zohiriy ixtilof qanday tushunilishi va ko'tarilishi bayon qilingan asarlar bir qancha. Jumladan Imom Tahoviyning "Sharh ma'oniyy al-asor" kitoblarida shunday deyiladi:

Abu Dovuddan rivoyat qilinadi. Ubayd ibn Fayruzdun, aytadilar-ki: "Baro ibn Azibdan qurbonlik hayvonlaridan qandaylari joiz emas deb so'radim. Shunda Baro: Rosululloh ﷺ biz bilan edilar, mening barmoqlarim u zotning barmoqlaridan kalta, barmoq uchlarim ham ularnikidan kaltadir dedilar. So'ng aytdilar: To'rt narsa qurbonlikka yaramaydi: bir ko'zi ko'r bo'lgan, kasalligi ochiq-oydin bo'lgan, cho'loqligi aniq bo'lgan va suyaklarining mag'zida ilik qolmaydigan darjada ozg'in bo'lsa", dedilar. Ubayd ibn fayruz dedilar: "men tishida ham nuqson bo'lishini yomon sanayman. Baro: ushbu yoqtirmagan ya'ni makruh sanagan narsangni o'zing tark qil va boshqa birovga harom qilmagin" dedilar.

Ushbu hadisning muqobiliga qo'yiluvchi boshqa hadisda qurbonlikka yaramaydigan jonliqning sifatlari yuqoridagi hadisdan farqlidir. Quyidagi hadis ham Abu Dovuddan rivoyat qilingan: Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, aytdilar: "Rosululloh ﷺ bizlarga qurbonlikda ikki ko'zi va ikki qulog'i ila

sharaflanishga (ko'zlari va quloqlari sog'lomini talab qilishga) buyurdilar, va ko'r, qulog'i uchidan kesilgan, qulog'ining yoni kesilgan, qulog'idan doira shaklida kesilgan va qulog'i o'rtasidan kesib ikkiga ajratib qo'yilgan jonliqlarni qurbonlik qilmasligimizga buyurdilar”.

Yuqoridagi hadislarida ziddiyat o'rni. Ushbu bobda birinchi keltirilgan hadis ya'ni Baro ibn Azib rivoyat qilgan hadisdan qurbonlik hayvonida yengil nuqsonlik, jarohat bo'lsa, misol uchun shohi singan yoki og'ir kasal bo'lmasa, u jonliq qurbonlikka yaroqli ekanligi tushuniladi. Ammo Ali roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda esa, jonliqda qanday bo'lsa ham nuqson bo'lsa, jarohat katta bo'ladimi kichikmi uni qurbonlikka so'yish joiz emasligi bayon qilingan.

Ulamolar ushbu zohiriy ixtilofni qanday yechganlar?

- 1- Ulardan Baro ibn Azibning hadislarini tarjih qilganlar ham bor. Ular hadisda kelgan, hayvondagi to'rt ayb va undan shiddatliroq bo'lgan holdagina, qurbonlikka yaramaydigan nuqson deb hisoblaydilar.
- 2- Boshqalar esa ikki hadis ma'nolarini jamlaganlar va aytadilarki: Baro Ibn Azibning hadislarini yengil jarohatlarga haml qilinadi. Ali ibn Abu Tolibning hadislaridan esa ko'proq va ochiq oydin noqislik tushuniladi. Bu fikrni Ibn Qudamaning gaplari ham ta'kidlaydi: “bu tanzihiy, yengil qaytariqdir va undan joizlik hosil bo'ladi”, deganlar.

Demak, ixtilof al-hadis ilmi olimlarining fikrlarini xulosa qilsak quyidagi natija hosil bo'ladi. Qurbonlik hayvonlari uch qismga bo'linadi:

- 1- Barcha ayblardan xoli bo'lgan, uni qurbonlik qilish mustahab bo'lgan jonliq;
- 2- Qurbonlik qilish makruh bo'lgan, qulog'i uchidan, yonidan kesilgan va o'rtasidan tiritilgan jonliq kabi;
- 3- Qurbonlik qilish joiz bo'lmagan, ochiq-oydin kasal, bir yoki ikki ko'zi ko'r yoki o'g'ir cho'loq bo'lgan jonliq kabi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan “ixtilof al-hadis” ilmining ma'nolari, ta'riflari, mohiyati va qoidalari ma'lum bo'ldi. Eng muhimi esa, ushbu ilmning ahamiyati, hadislarini to'g'ri fahmlash va ulardan hukm olish jarayonida qanchalik e'tiborli ekanligini angladik. Albatta, nabaviy hadislar shariat ahkamlari istimbot qilinadigan asosiy manbalardan biridir. Musulmon kishining ibodati va hayotidagi barcha turdagi muomalotlarini, ularning hukmlari va to'g'ri amalga oshirish yo'llarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fan fiqh ilmidir. Shunday ekan asosiy manbasi hadislar bo'lgan fiqh ilmi va uning barcha turkumdagi masalalarini tushunish va ulardan far'iy hukmlarni chiqarib olishda ixtilof al-hadis ilmining ahamiyati beqiyosdir.